

FIZIKADAN KOMPITENSTIYAVIY FANLARARO SINFDAN TASHQARI ISHLAR TEXNOLOGIYASI VA O'QITISH METODIKASI

Algorov Qodir Xolmatovich¹, Ostonova Zarifa Erkinovna²

¹*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Jizzax sh.,*

²*Samarqand viloyati Toyloq tumani 17-maktab o'qituvchisi, Samarqand sh.,*

O'zbekiston

e-mail: qodir@jspi.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fizika fanini sinfdan tashqari interfaol holatda fanlararo bog'liqlik yaratib tashkil etish texnologiyasi va o'qitish metodikasi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Fizika, sinfdan tashqari ishlar, fizik to'garaklar, kechalar, ekskursiyalar.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются технология и методика внеаудиторного обучения физике.*

Ключевые слова: *Физика, внеклассные занятия, кружки физики, вечеринки, экскурсии.*

Abstract: *This article discusses the technology and methodology of extracurricular teaching of physics*

Keywords: *Physics, extra-curricular activities, physics circles, parties, excursions*

Fizika shunday fanki, u nazariy va eksperemintal tadqiqot metodlaridan foydalanib rivojlanadi. Bu metodlar o'quv-bilish va ilmiy-tadqiqot jarayonlari uchun birday muhimdir. O'qitish va ilmiy bilish jarayonlari munosabati ularni prinsipial

farqli jihatlar va umumiylik (shu bilan bir qatorda o'quv va ilmiy bilish metodlarining uzviyligi)ni ko'rsatadi. Bilishga qaratilgan harakatda o'qituvchi har xil o'qitish metodlari yordamida ta'lim oluvchi tomonidan qo'llaniladigan o'quv bilish metodlarini aniqlaydigan usullarni qo'llaydi. Ta'lim oluvchilar fizikani o'rganish jarayonida atrof-muhit, tabiat hodisalarini yoki o'qituvchi tomonidan tajribalarni namoyish qilish davrida kuzatishga o'rgatadi, kuzatilgan hodisalarni tahlil qilish va solishtirish natijasida aqliy xulosa asosida o'z tasavvurlariga ega bo'ladilar. Shu sabab ham sinfdan tashqari ishlar barcha amaliy fanlar qatori fizika fani uchun ham juda muhim jarayon hisoblanadi.

Sinfdan tashqari ishlar maktabning o'quv-tarbiyaviy faoliyatining ajralmas va muhim qismidir. Uning maqsadi fan, texnika, madaniyat sohasida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishdan iborat. Darsdan tashqari ishlar o'quvchilarda fizikani o'rganishga qiziqish uyg'otadi, fan va texnikaning yangi yutuqlari bilan tanishtirib boradi, tashabbuskorlikni, mustaqillikni, jamoadoshlik va o'rtoqlik hissini, qo'yilgan maqsadga erishishdagi qat'iylikni tarbiyalaydi.

Fizikadan darsdan tashqari ishlar deb darsdan tashqari sharoitda bevosita o'qituvchini rahbarligida, reja asosida ma'lum maqsadni ko'zlab, o'quvchilarni xohishlarini hisobga olib uyushtiriladigan mashg'ulot turiga aytiladi.

Darsdan tashqari ishlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) yaxshi o'zlashtirmaydigan o'quvchilarga konsultatsiya va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tish, ekskursiyalar tashkil etish;
- 2) fizika, fizika-texnika to'garaklari, fizika kechalari, konferensiyalar, olimpiada va tanlovlar, o'rta umumta'lim maktablarida fizika haftaligi, devoriy gazetalar chiqarish, ko'rgazmalar tashkil qilish, fizik asboblar tayyorlash va hokazolar. Guruh mashg'ulotlari to'garaklardir. Ommaviy mashg'ulotlar-fizika kechalari, tanlovlar, fizika haftaligi

Fizikadan darsdan tashqari ishlarni o'tkazishda noan'anaviy metodlar, rolli o'yinlar usulidan foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash juda samarali natijalarni

beradi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyatini tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini-o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Yondosh fanlarning va muammolarning bir-biriga uzviy bog'liqligi asosida bajariladigan mashg'ulotlar juda samarali bo'ladi. Masalan, hozirgi kunda o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda, fizika darslarida bu fanlar bilan ingliz tili fani orasida bog'lanishni yo'lga qo'yish o'quvchilarning ham fizika faniga, ham ingliz tili faniga bo'lgan qiziqishini, bilimini kuchaytiradi va dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshiradi. Masalan, fizik atamalarning ingliz tilida qanday ifodalanishi, talaffuz qilinishi ustida izlanishlar bunga misol bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda fizika darslarini sinfdan tashqari tashkil etishda interfaol metodlar va fanlararo bog'liqlik yaratish samarali natijalar ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sayidahmedov N.S. O'qituvchining pedagogik tizimdagi faoliyati. - Xalq ta'limi, 2020, № 6-7, 9-12 betlar.
- 2.Sayidahmedov S.N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. - Xalq ta'limi, 2021, № 1, 97-102 betlar.
3. Кац Ц. Б. Биофизика на уроках физики. М. "Просвещение", 1974.
- 4."Демонстрационный эксперимент по физике". А.А. Покровский тахририда. М: "Просвещение", 1971.